

MISR MATBUOTINING PAYDO BO‘LISHI TARIXI XUSUSIDA

V.X. Murtazoyev,

SamDCHTI Yaqin sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Misr arab respublikasi hdudida ilk matbuotnig paydo bo‘lishi va uning asosiy omillari haqida so‘z boradi. Shuningdek, ilk davrlardagi matbuot shakllari va unga nibatan olib borilgan siyosat, matbuotnig jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida fikrlar keltirilgan. Misr matbuoti paydo bo‘lishi va shakllanishidagi turli bosqichlar haqida tushuncha beriladi.

***Kalit so‘zlar:** matbuot, mustamlaka, mustamlaka bosqichlari, mustamllak davri, omillar, Britaniya mustamlakasi, siyosiy institutlar*

К ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЕГИПЕТСКОЙ ПРЕССЫ

В. Х. Муртазоев,

СамГИИЯ, преподаватель кафедры Ближневосточных языков

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о возникновении первой прессы в Арабской Республике Египет и его основных факторах. Также существуют мнения о формах печати в ранние времена и проводимой благодаря этому политике, о роли прессы в жизни общества. Дано понимание разных этапов возникновения и становления египетской прессы.

***Ключевые слова:** пресса, колония, колониальные этапы, колониальный период, факторы, британская колония, политические институты.*

ABOUT THE HISTORY OF THE EGYPTIAN PRESS

V. Kh. Murtazoev,

teacher of Department of Middle Eastern Languages, SamSIFL.

ABSTRACT

This article talks about the emergence of the first press in the Arab Republic of Egypt and its main factors. Also, there are opinions about the forms of the press in the early times and the policy carried out due to it, the role of the press in the life of the society. An understanding of the different stages in the emergence and formation of the Egyptian press is given.

***Key words:** press, colony, colonial stages, colonial period, factors, British colony, political institutions*

KIRISH

Matbuot barcha davrlarda o'ziga xos muhim o'ringa ega soha hisoblanib kelgan va turli mamlakatlarda matbuotning paydo bo'lishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Arab matbuoti ham vujudga kelishi va rivojlanishining o'ziga xos jihatlari mavjud. Ayniqsa, mustamlakachilik davrida matbuotning vujudga kelishi uning qadrini yanada orttirdi. Misr matbuotining paydo bo'lishida ham qator omillar muhim rol o'ynagan. Bular orasida mamlakatdagi siyosiy vaziyat va aholining unga bo'lgan munosabati hamda mustamaka hukumatining o'z faoliyatini targ'ib qilish borasidagi ishlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ya'ni, mustamlaka hukumati o'zining hududdagi obro'sini oshirish uchun turli gazetalar tashkil qilish orqali xalq ongiga ta'sir o'tkazishga harakat qilardi. Bu bilan parallel ravishda mamlakatdagi qator ma'rifatparvar, ozodlik tarafdorlari milliy ozodlik harakatlariga ahlini targ'ib qilish uchun ham bosma nashrlar tashkil qilishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Misr hududidagi gazetalarning paydo bo'lish omillari va rivojlanish bosqichlari xususida qator arab tarixchi va tilshunos olimlari tadqiqotlar olib borishgan. Bu borada asosan arab olimlar ish olib borganligini aytshimiz mumkin. Jumladan doktor Fathiy Husayn Omirning "Arab matbuoti tarixi"¹, Adib Marvaning "Misr matbuoti: paydo bo'lishi va rivojlanishi"² kabi asarlarida Misrda matbuotning paydo bo'lishi va taraqqiyoti xususida atroflicha ma'lumot berilgan. Bu mavz doirasida Misrda paydo bo'lgan ilk nashrlar "Al-Vaqoi' al-Misriyya", "Nil vodiysi", "Sharq yulduzi" kabi gazetalarning, umuman, Misrdagi ilk gazetalarning paydo bo'lishi sabablari va ularning rivojlanish bosqichlari jarayonini tahlil qilish ishimizning predmeti hisoblanadi.

Misr arab davlatlari orasidagi jurnalistika haqiqiy ma'noda paydo bo'lgan davlat sifatida qaraladi. Misrdagi ilk gazeta 1798-yilda Napoleon Bonapart boshchiligidagi kompaniya kelganda nashr qilingan. Bu kompaniya o'zi bilan arab va fransuz tillaridagi bosmaxonani olib keladi. Misrda bosma nashrlarning vujudga kelishida quyidagi omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin³:

1. G'oyaviy uyg'onish. XVIII asrga kelib, Usmoniylar imperiyasi zaiflashuvi bilan Misr o'lkasida yangi davr bo'y ko'rsata boshladi va fransuz bosqini arafasida misrliklarning dunyoqarashida katta o'zgarishlar yuzaga kelgan edi. Bu o'zgarishlar fransuz bosqinidan bir necha yil oldin boshlangan. Keyin u xuddi shu yurish paytida

¹الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013
² أديب مروه الصحافة العربية نشأتها وتطورها، دار مكتبة الحياة-1959

³الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013

o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi va fransuzlar Misrni tark etishi bilan yangi o'lchovlar yuzaga keldi. al-Azharning Shayx Hasan Al-Attor va Al-Sharqaviy kabi bir qancha ma'rifatparvar shayxlari, go'yo Fransiyaning Misrga qarshi yurishidan oldin 1795-yilda sodir bo'lgan uch yillik haj misrliklarni uyqudan uyg'otish uchun yetarli emas deb hisoblardilar. Napoleon Bonapart buni yakunlash uchun o'zining harbiy kampaniyasining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. Kampaniya tomonidan yaratilgan siyosiy bo'shliq orqali hukmron kuch sifatida haqiqiy hokimiyatga uyg'onish taqdim etdi. Misrliklar uyg'onib, fransuz kampaniyasi olib kelgan zamonaviy sivilizatsiyaning qog'ozlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan ilg'or qurollar va bosmaxonadan chiqqan ba'zi mahsulotlarini ko'rishdi. Misrliklar Bonapartni dastlab oddiy xalqning mehrini qozonish va ularga yaqinlashish uchun arab tilida chop etgan risolalarda ko'rishgan.⁴

2. Yangi davlatning barpo etilishi. Yangi davlat paydo bo'lishi bir qancha yangiliklarni amaliyotga joriy etdi. Ular orasida siyosiy tashkilotlarning tuzilishi, ta'limga e'tibor qaratilishi, iqtisodiyotning rivojlanishi, g'oyaviy oqimlarning chiqishi va, albatta, matbuotga alohida e'tibor berilishi mavjud edi.

Muhammad Ali 1805-yilda Misrda hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng zamonaviy davlat qurishga kirishdi. 1811-yilda "Qal'a qirg'ini" nomi bilan mashhur jangda mamluklardan qutulishga erishdi. Keyinchalik uni hokimiyatga olib kelgan xalq rahbarlaridan, ayniqsa, Qohira tashqarisiga surgun qilgan janob Umar Makramdan qutuldi.

Misrda zamonaviy davlat qurishning eng ko'zga ko'ringan quyidagi xususiyatlari matbuotning paydo bo'lishiga eng katta ta'sir ko'rsatdi⁵:

a) siyosiy institutlarni tashkil etish;

Bu muassasalar ijroiya kengashlari yoki byurolariga bo'lingan. Muhammad Ali 1818 yilda ijroiya vakolatiga ega bo'lgan siyosiy maslahat kengashlarini tashkil etdi. U armiya qurishda yevropacha uslubni qo'llagan va keyinchalik majburiy harbiy xizmatga chaqiruvni joriy etgan hamda zamonaviy qurollarni joriy etish va harbiy maktablarni shakllantirishga asos solgan. Shuningdek, ba'zi ishlarni o'z zimmasiga oladigan hukumat maslahat organini shakllantirish maqsadida Oliy kengashni tuzdi. Muhammad Ali siyosiy institut bo'lgan zamonaviy armiya qurishga ham alohida e'tibor qaratgan.

b) ta'limga e'tibor;

Muhammad Ali ta'limga e'tibor berdi va 1811-yilda ta'limning barcha bosqichlari uchun muntazam maktablar tashkil etdi. U Yevropa, xususan, Fransiya,

⁴الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013
⁵الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013

Angliya va Italiyaga ilmiy missiyalar yuborish orqali ta'lim islohotlarini amalga oshirardi.

d) Misr iqtisodiyotining rivojlanishi;

Muhammad Ali hukmronligi davrida Misr iqtisodiyoti juda gullab-yashnadi va ekin maydonlarini ko'paytirish majburiyatlari tizimi yo'qoldi. Mamluk feodalizmi, xo'jalik faoliyatining barcha jabhalari ustidan davlat nazoratining to'liq tizimini ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligi sohasida yerga egalik huquqini bekor qilib, uni to'liq o'z tasarrufiga o'tkazadigan tarzda qayta taqsimladi.

e) intellektual oqimlarning paydo bo'lishi;

Ushbu oqimlar Al-Xadiviyy Ismoil hukmronligi davrida (1863-1879) paydo bo'la boshladiva quyidagi ikki qismga ajralgan holda namoyon bo'ldi:

1) islomiy oqim.

-islomni uning atrofidagi turg'unlikdan uzoq, haqiqiy shaklida taqdim etish;

-dinni davr bilan bog'lash; islomni zamon taraqqiyotiga mos qayta talqin qilish;

2) dunyoviy yo'nalish.

XIX asr oxirida tarqalgan tarjimachilik harakati ham o'z hissasini qo'shdi. Ko'pgina zamonaviy Yevropa g'oyalarini misrliklarga keng miqyosda yetkazishda, shuningdek, o'z mamlakatida Usmonli zulmidan qochgan levant hujumchilari bu oqim mavqeini oshirishda turli ilmiy mavzularga bag'ishlangan madaniy jurnallar chiqarish orqali muhim rol o'ynadi. Ular orqali dinni davlatdan ajratish zarurligiga chaqirdilar.⁶

3. Misrning Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylantirilishi. Angliyaning Misrni bosib olishi Misr matbuotini katta siljishga olib kelgan omillardan biri sanaladi. Ingliz istilosidan oldingi voqealar arab inqilobi kabi yangi siyosiy kuchni yuzaga keltirdi. Ularning har biri o'z so'zini aytadigan gazetalar yaratishga qiziqdi. Natijada bir vaqtning o'zida arab va ingliz tillaridagi matbuot nashrlari soni ortib bordi.

Misrda dastlabki gazetalarning rivojlanish bugungi kungacha bo'lgan davrda bir qancha turli bosqichlarga bo'linadi va bu bosqichlar quyidagilarda ifodalanadi:

Birinchi bosqich (1822-1862-yillar). Bu bosqich Muhammad Ali tuzmoqchi bo'lgan Misr davlati bilan bog'liqdir. Gazetalar bu davlatning yuzi bo'lishi kerak edi va ilk Misr gazetalarning paydo bo'lishi Muhammad Alining yutuqlaridan biri bilan bog'liq bo'lgan. Kunlik yoki haftalik hisobot shaklida taqdim etiladigan hududlarda sodir bo'layotgan voqealarni, kuzatib borish zarurligini ko'rdi. Unga "Jurnal" atamasi berildi, so'ngra har hafta unga taqdim etila boshlandi va keyinchalik kunlik nashr qilish uchun buyruq chiqarildi. Biroq ba'zi tarixchilar bu jurnalni Misrda nashr

⁶الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013

etilgan birinchi gazeta deb hisoblamaydilar. Buning uchun “jurnal”ning gubernatorga taqdim etiladigan hisobot ekanligi va cheklangan nusxada chop etilishi, aholiga yetib bormasligiga asoslanadilar. Muhammad Ali o‘z hukumati uchun o‘rnatgan tizimlar joriy bo‘lgandan keyin, “yangiliklar xalqsiz faqat davlat amaldorlariga tegishli emasmi”, degan savolni o‘ylaydi. Shuning uchun u hukumat va rahbarlarga oid xabarlarini 1828 yilda o‘zi chiqargan “Al-Vaqoi’ al-Misriyya” nomli bir gazetada birga bosib chiqarishni buyuradi va bu gazeta Buloq ad-Dakrurhududida chop etilar edi. Bu gazetaning maqsadi xalqni Muhammad Ali davlat va uning aholisi uchun qilmoqchi bo‘lgan yangilanishlaridan xabardor qilish va bu o‘zgarishlarning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib berishdan iborat edi. “Al-Vaqoi’” arab va turk tillarida bir xil adadda chop etilar edi. U olimlar va katta davlat arboblari, oddiy aholiga, maktab o‘quvchilari hamda harbiylarga tarqatilar edi. Shuningdek, Muhammad Ali zabt etgan arab mamlakatlariga, masalan, Shom, Sudan, Hijozga yuborilgan. Bosma nusxalar soni atigi olti yuzta edi. Gazeta hukumat va uning vakillari faoliyatini aks ettiruvchi maqolalarga to‘la edi.⁷

Ikkinchi bosqich (1873-1879). Bu bosqichdahan o‘ziga xos yangiliklar mavjud bo‘lib, bu bosqich Misrda Al-Xadiviyy Ismoil hukmronlik qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda turli sohalarga ixtisoslashgan gazetalar chiqa boshlagan va bugungacha mavjud bo‘lgan “Al-Ahram” gazetasi ham shu davrda chiqa boshlagan edi. Ismoil saltanatining boshida davlat barpo etishda bobosi Muhammad Alining tarjimai holini takrorlashga harakat qildi. Bu davrda nashr etilayotgan hukumat gazetalar 23taga yetgan edi. Uning davri gazetalar xilma-xilligi va xususiy gazetalar mavjudligi bilan ham ajralib turadi. Bu davrda “Al-Vaqoi’ al-Misriyya”(1828), Yasub At-Tib(1865, 1877-yil nashri to‘xtatilgan), Harbiy gazeta (1865), “Rawdat al-Madaris”(maktablar bog‘i) jurnali (1870) kabilar nashr etilardi. Bundan tashqari quyidagi xususiy gazetalar nashri ham aynan Al-Xadiviyy Ismoil hukmronlik davrida chiqa boshlagan: “Nil vodiysi”(1867), “g‘oyalar sayri” gazetasi (1869), “Sharq yulduzi” gazetasi (1873), “xabarlar bog‘i” gazetasi (1875).

Uchinchi bosqich(1880-1899) gazetalarining Buyuk Britaniya mustamlakasiga qarshi muvaffaqiyatsizlikka uchragan inqilobga nisbatan turli pozitsiyaliligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga bu davrdagi ayrim gazetalar inqilobga olib boruvchi gazetalar ham edi. Shu tariqa bu davr matbuoti Misrda Angliya hukmronligi boshlanishi davriga aloqadorligi bilan ajralib turadi va arab matbuotida yangi davr boshlandi.

⁷الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013

XULOSA

Shu tariqa, Misr gazetalari paydo bo'lib, rivojlanish bosqichlarining dastlabkisi o'z nihoyasiga yetadi. Keyingi bosqichlar bevosita Misr gazetachiligi tarixida yangi davr, yangicha uslublar, nisbatan rivojlangan gazetchilik davri sifatida qaraladi. Muxtasar qilib aytganda, Misr matbuoti arab dunyosidagi matbuotning tamal toshi bo'lib xizmat qilgan deyishimiz mumkin. Bu esa boshqa arab davlatlarida matbuotning paydo bo'lishi uchun dastlabki turtki va andoza bo'lganligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Чтение и анализ газетных текстов=NewspaperCriticalReading: учебное – методическое пособие для студентов фак. Междунар. Отношений БГУ/сост.: И.Р. Мархасёв, В. А. Зайцева—Минск: БГУ, 2010.—184 с.
2. Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). New York, 2006. Page 259.
3. Media and Communication. New and Key Titles 2013. // www.routledge.com/media
4. Курбонов, Бобур. "Мовароуннахр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 5, 2022, pp. 471-482.
5. الدكتور فتحي حسين عامر. تاريخ الصحافة العربية. القاهرة: العربي للنشر والتوزيع 2013
6. أديب مروه الصحافة العربية نشأتها وتطورها، دار مكتبة الحياة—1959
7. www.al-bab.com
8. www.quora.com
9. www.aljazeera.net
10. www.akhbarelyoum.dz